nazar tomonidan frazeologik birliklarning tarjima jarayonidagi muammolari sifatida ko‘rib chiqilgan. Bu maqollarni tarjima qilish qiyin bo‘lib, ular ekvivalent hisoblanmaydi.[1]

“Money talks” ingliz tilida keng ishlatiladigan maqol bo‘lib, pulning jamiyatdagi kuchini ifodalaydi. O‘zbek tilida esa “Boy bo‘lgan – bosh bo‘lgan” shaklida biroz umumiyroq ma’no beriladi.

“If you pay peanuts, you get monkeys” va “Arzon go‘sht sho‘rvaga qochadi” maqollari ma’nosi yaqin bo‘lsa ham, tuzilish jihatidan farq qiladi.

“A fool and his money are soon parted” maqoli esa o‘zbek tilida bevosita ekvivalentga ega emas, lekin “Ahmoqning puli yelga o‘xshaydi – uchib ketadi” iborasi mazmunan unga yaqin.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Ingliz va o‘zbek tillarida pul birliklariga oid maqollar uch xil mutanosiblik darajasiga, ya’ni, to‘liq mutanosib mazmun va shakl jihatdan deyarli bir xil, qisman mutanosib mazmuni o‘xshash, lekin ifoda shakli farqli, umuman, mutanosib bo‘lmagan mentalitet va madaniyatga bog‘liq holda shakllangan maqollarga bo‘linib, ushbu maqollar xalqning iqtisodiy dunyoqarashi, qadriyatlari va hayot tajribasini aks ettiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki:

•to‘liq mutanosib maqollar xalqaro iqtisodiy tajribaga asoslangan;

▪qisman mutanosib maqollar tarjimada dinamik ekvivalentlikni talab qiladi;

▪mutanosib bo‘lmagan maqollar esa har bir xalqning o‘ziga xos iqtisodiy tafakkuridan dalolat beradi;

▪nufuzli tilshunoslar frazeologik birliklarning universal, qisman ekvivalent yoki mutlaqo o‘ziga xos bo‘lishini tilning madaniy qatlamlari bilan izohlaydilar.

Ushbu maqola pul haqidagi maqollarni semantik sathda tahlil qilish bilan birga, tarjima jarayonida madaniy xususiyatlarni hisobga olish muhimligini ko‘rsatishi bilan bir qatorda, keyingi tadqiqotlarda maqollarning pragmatik va stilistik jihatlari ham chuqurroq o‘rganilishi lozimligini ko‘rsatadi. Xususan, pul bilan bog‘liq maqollarni aksiologik jihatdan o‘rganish kelajakda iqtisodiy leksika va madaniy tafovutlarni tadqiq qilishda muhim ilmiy ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Baker, M. In Other Words. A Coursebook on Translation. Routledge, 2018.

(2). Kunin A.V. English-Russian Phraseological Dictionary. Moscow, Sovetskaya Entsiklopediya, 1970.

(3). Kurbonboevna C.I., Nasimjon o‘g‘li I.A.Comparative Analysis of Body Language in English and Uzbek Culture the Meaning of Hand Gestures. International Journal of Formal Education. 2023, t. 2, № 6, p. 349–351.

(4). Malmkjaer, K. Linguistic and Cultural Translation Studies. Oxford: Oxford University Press, 2005.

(5). Mieder W. Proverbs: A handbbok. Westpork: Greenwood Press, 2004.

(6). Mollanazar, H. Principles and Methods of Translation. Tehran, SAMT, 2001.

(7). Newmark, P. A Textbook of Translation. Prentice Hall, 1988.

(8). Nida E. The Theory and Practice of Translation. Leiden: Brill, 1969.

Raxmanova Sarvinoz Alisherovna (Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi; e-mail: sarvinozraxmonova94@.gmail.com)

SABR VA CHIDAM FRAZEOLOGIZMLARINING TARIXIY-LINGVISTIK ILDIZLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqola sabr va chidam frazeologizmlarining tarixiy va lingvistik ildizlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Sabr va chidam inson ruhiyatining mustahkamligi, ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlarga qarshi turish qobiliyatini ifodalovchi muhim frazeologik birliklardir. Maqolada bu frazeologizmlarning turli tillarda va madaniyatlarda qanday rivojlanganligi, ularning tarixiy ildizlari va ijtimoiy hayotdagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, sabr va chidam frazeologizmlarining o‘zbek tilidagi o‘rni va rivojlanish jarayoni hamda ularning xalq an’analaridagi o‘rni ko‘rsatilgan.*

Kalit so‘zlar*: sabr, chidam, frazeologizmlar, tarixiy ildizlar, lingvistika, madaniyat, tilshunoslik, ijtimoiy munosabatlar, o‘zbek tili, xalq an’analari.*

Рахманова Сарвиноз Алишеровна (преподаватель Термезского государственного педагогического института; e-mail: sarvinozraxmonova94@.gmail.com)

ИСТОРИКО-ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ КОРНИ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ ТЕРПЕНИЯ И ВЫНОСЛИВОСТИ

Аннотация. *Данная статья посвящена изучению историко-лингвистических корней фразеологии терпения и выносливости. Терпение и выносливость – важные фразеологизмы, выражаю-*

[1] Malmkjaer, K. Linguistic and Cultural Translation Studies. Oxford: Oxford University Press, 2005.

щие силу человеческого духа, способность противостоять переменам в общественной жизни. В статье анализируется, как развивались эти фразеологизмы в разных языках и культурах, их исторические корни и роль в общественной жизни. Также показаны место и процесс развития фразеологии терпения и выносливости в узбекском языке и их место в народных традициях.

Ключевые слова: *терпение, выносливость, фразеология, исторические корни, языкознание, культура, языкознание, общественные отношения, узбекский язык, народные традиции.*

Raxmanova Sarvinoz Alisherovna (Teacher of Termiz State Pedagogical Institute;
e-mail: sarvinozraxmonova94@.gmail.com)

HISTORICAL-LINGUISTIC ROOTS OF THE PHRASEOLOGISMS OF PATIENCE AND ENDURANCE

Annotation. *This article is devoted to the study of the historical and linguistic roots of the phraseologisms of patience and endurance. Patience and endurance are important phraseological units that express the strength of the human spirit, the ability to resist changes in social life. The article analyzes how these phraseologisms have developed in different languages and cultures, their historical roots and place in social life. It also shows the place and development process of the phraseologisms of patience and endurance in the Uzbek language, as well as their place in folk traditions.*

Keywords: *patience, endurance, phraseologisms, historical roots, linguistics, culture, linguistics, social relations, Uzbek language, folk traditions.*

Kirish (Introduction). Frazeologizmlar tilshunoslikda juda muhim o‘ringa ega bo‘lib, ular tildagi tayyor, barqaror birikmalar sifatida tilning boyligini, milliy madaniyat va mentalitetini ifodalaydi. Frazeologizmlar, odatda, ko‘chma ma’noga ega bo‘ladi. Ularning tarkibiy qismlarining alohida ma’nolari umumiy ma’noga to‘liq mos kelmaydi. Shu bois tilshunoslikda frazeologik ma’no va uning tahlili alohida o‘rganiladi.

Frazeologizm tilshunoslikda muhim o‘rin tutadi, chunki ular tilning faqat grammatik yoki sintaktik tuzilmasini emas, balki uning madaniy, tarixiy va ruhiy qatlamlarini ham aks ettiradi. Sabr va chidam kabi frazeologizmlar o‘zining ma’nosi va ishlatilishida insonning ruhiy holati, ijtimoiy munosabatlar va an’anaviy qadriyatlarni yoritadi. Bu maqolada sabr va chidam frazeologizmlarining tarixiy-tilshunoslik ildizlari tahlil qilinadi. Frazeologizm bu nutqning yakuniy va mustahkam birligi bo‘lib, ikki yoki undan ortiq so‘zdan tashkil topgan va muayyan ma’no ifodalovchi strukturadir. Frazeologizmlar, ko‘pincha, o‘zlarining boy tarixiy ildizlari, madaniy va lingvistik aloqalari orqali ajralib turadi. Ayniqsa, sabr va chidam kabi inson ruhiyatiga taalluqli tushunchalar o‘ziga xos frazologik ifodalarga ega. Mazkur maqolada sabr va chidam frazeologizmlarining tarixiy-lingvistik ildizlari va ularning rivojlanishiga oid tahlil yuritiladi. Ularning ijtimoiy hayotdagi o‘rni, madaniyatdagi ahamiyati va tilda qanday shakllanganligi haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, o‘zbek tilidagi sabr va chidam frazeologizmlarining hozirgi zamon tilshunosligi doirasidagi ahamiyati ko‘rsatiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Sabr va chidamga oid frazeologik birliklarning tarixiy ildizlarini o‘rganish, nafaqat tilshunoslarga, balki xalqlarning madaniy va ijtimoiy rivojlanish jarayonlarini ham tushunishga yordam beradi. Bu frazeologik birliklar tarixan ijtimoiy hayotda ahamiyatli o‘rin tutgan va hozirgi kunda ham jamoatchilik, ma’naviyat va shaxsiyatning muhim jihatlarini aks ettiradi. Ma’lum bir tilning xazinasi sifatida frazeologiyani keltirish mumkin. Negaki frazeologiya xalqning tarixini, madaniyati va o‘ziga xosligini ko‘rsatadi. Frazeologizmlar, asosan, millatning urf-odatlarini, an’analarini o‘zida aks ettiradi. Ammo ingliz tili frazeologiyasida milliy an`analarni ifodalab keluvchi fiziologik birlik (ushbu ilmiy ishda frazeologik birliklar iborasi FB ko‘rinishida qisqartirilgan)lar bilan bir qatorda, xalqaro frazeologizmlar ham uchraydi.

Ba’zi frazeologik birliklarda arxaik elementlar saqlanib qolgan. Frazeologik birliklarni nutqni bezaydigan vosita sifatidagina qarash noto‘g‘ri bo‘lib, ular ham boshqa til birliklari singari yuqori informativ xususiyatga ega, tilda nominativ va komunikativ funksiya bajaruvchi birliklardir. Frazeologik birliklari mavjud bo‘lmagan birorta til ham yo‘q [6;183-b.]. Sabr va chidam frazeologizmlarini, ularning tarixiy kelib chiqishini o‘rgangan ba’zi olimlar ularning yaratgan manbalari mavjud bo‘lib ular hozirgi kunga qadar keng foydalanib kelmoqda. O‘tgan asrning 40–50-yillarida Sh.Rahmatullayev (1969), G.A.Bayramov (1983), M.F.Chernov (1986) bu soxaga o‘z xissasini qo‘shgan [1;1203-b.].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Sabr va chidam frazeologizmlarining tarixiy – lingvistik ildizlariga bag‘ishlangan ushbu maqolada ilmiy tadqiqotning qiyosiy tahlil, analiz, sintez kabi metodlaridan samarali foydalanildi. Bunda sabr va chidamning frazeologik birliklari tarixiy kontekstda

qanday shakllanganini aniqlash maqsad qilingan. Buning uchun bir qator zamonaviy lug'atlar, etimologik manbalar va tilshunoslik tadqiqotlari asosida tahlil o'tkazilgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Sabr va chidam frazeologizmlari tarix davomida ko'plab adabiy asarlarda va xalq og'zaki ijodida keng qo'llanilgan. O'zbek xalq og'zaki ijodida sabr va chidam bilan bog'liq ko'plab maqollar, hikmatlar va iboralar uchraydi. Bu iboralar insonning kurashdagi muvaffaqiyatlari yoki muvaffaqiyatsizliklarini tasvirlaydi. Masalan, «sabr qilgan sari, omad keladi» yoki «chidamli bo'lsang, to'rtta tog'ni ham o'tib ketasan» kabi iboralar sabr va chidamning qadrlanib, ularga ijtimoiy-psixologik ma'no berilganini ko'rsatadi. Sabr va chidam tushunchalarining quyidagicha tahlil qilishimiz mumkin: Ular bir biridan quyidagicha tasniflash mumkin.

Sabr [a. chidam, bardosh, iroda, qat'iyat]. 1. Biror holat yoki hodisani bardosh bilan kutish, qanoat qilish; o'zini tiyish. *Sabr tagi – sariq oltin.* Maqol. Banda deganning sabrdan boshqa chorasi yo'q. Hamza, Tanlangan asarlar [2;411-b.]. Bu tushuncha etimologik lug'atda quyidagicha ma'no anglatadi. *Sabr* bu arabcha so'z sabr (un) shakliga ega (APC, 427); o'zbek tiliga sad undoshini s undoshiga almashtirib qabul qilingan: sabr-сабр; ko'p ma'noli sabara felining *toqatli bo'ldi* ma'nosi bilan (APC. 427) hosil qilingan I bob masdari bo'lib (ATG.142), *toqat* ma'nosini anglatadi [3;365-b.]. *Sabr qilish* iborasi ko'pincha vaqt o'tgach, sabr natijasida yaxshi natijalarga erishishni anglatadi. Bu frazeologizmlar odamni og'ir sharoitda tinchlanishga, o'ziga ishonishga va imkoniyatlarni kutishga undaydi.

Chidam–qiyinchilik, dard, alam, azob va sh.k.ga toqat qila olish qobiliyati; to'zim, toqat, sabr-bardosh. *Chidami yo'q odam. Chidam bermoq. – Kelsa boshga har og'irlik, voh dema, Bardosh qilib, chidam ko'rsat, oh dema*. Habibiy. *Bola faqir har bir og'irlikni chidam bilan yengishdan boshqa chorasi yo'q* [4; 479-b.]. Endi chidam so'zining etimologik kelishini ko'rib chiqamiz. Chidam – «sabr-toqat», «bardosh». Bola faqirning har bir og'irlikni chidam bilan yengishdan boshqa chorasi yo'q (Parda Tursun). Bu ot eski o'zbek tilida «bardosh ber-» ma'nosini anglatuvchi чыда fe'lidan -m qo'shimchasi bilan yasalgan; keyinchalik, a unlisi ä unlisiga almashgan, ы unlisining qattiqlik belgisi yo'qolgan: chida-+m=chidam, chidäm [5;424-b.]. ***Chidamli bo'lish*** frazeologizmi esa, ko'proq, jismoniy yoki ma'naviy chidamning davomiyligini ta'kidlaydi, ya'ni, insonning uzoq vaqt davomida qiyinchiliklarga qarshi kurashishga tayyorligini bildiradi. Bundan tashqari, bu frazeologik birlik psixologik va ruhiy holatlarni ifodalovchi frazeologik birliklarda ishlatiladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion /Recommendations). Sabr va chidam frazeologizmlari nafaqat tilning bir qismi, balki inson ruhiyatining va ijtimoiy muhitning aks sadosidir. Ularning tarixiy va lingvistik ildizlarini o'rganish, tilshunoslarga frazeologizmning taraqqiyotini, ijtimoiy hayotdagi o'rni va xalqning ma'naviy qadriyatlarini anglashda yordam beradi. Bu frazeologizmlar xalqning ruhiy mustahkamligi, qiyinchiliklarga qarshi turish va ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlarga moslashuvchanligini ifodalaydi. Sabr va chidam frazeologizmlarining tarixiy-lingvistik ildizlari ularning keng tarqalgan va uzoq tarixga ega ekanligini ko'rsatadi. Bu frazalar nafaqat tilning leksik xususiyatlari, balki insoniyatning ruhiy va ma'naviy taraqqiyoti, jamiyatdagi qadriyatlar bilan bog'liq. Tarixiy, madaniy va lingvistik aspektlarni birlashtirgan holda, sabr va chidam frazeologizmlarining rivojlanishi va ma'nosi, o'zbek tilining va xalqining ruhiyatini tushunishda muhim o'rin tutadi. Shunday qilib, sabr va chidam frazeologizmlarining tarixiy tilshunoslik ildizlarini o'rganish, ularning tilshunoslikdagi o'rnini va jamiyatdagi ahamiyatini tushunishga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

(1). Begmatov E., Umarov E., Hojiyev A. O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent, 2020, 411-bet.

(2). Begmatov E., Umarov E., Hojiyev A. O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent, 2020, 479-bet.

(3). Maksetova Z.T. Tilshunoslikda frazeologik birliklarning o'rganilishi va ularning tasnifi. Scientific Journal Impact Factor. February 2024, Volume 2, Issue 1, p. 101–106.

(4). Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. Toshkent, "Unuversitet", 2003.

(5). Sapayeva Z.Sh. Ingliz va o'zbek tillarida frazeologizmlarining semantik va lingvokulturologik tahlili. Science and Education Scientific journal, Impact Factor 3.848, January 2023, Volume 4, Issue 1, p. 132–137.

Mamatov Shukrullo Shermat o'g'li (Jizzax davlat Pedagogika universiteti tayanch doktoranti; mamatovshukrullojon@gmail.com)

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI EKOTIZIMLAR EKOLOGIYASIGA OID TERMINLARNING STRUKTUR-SEMANTIK TAHLILIGA DOIR

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi ekotizimlar ekologiyasiga oid terminlarning struktursementik tahlili amalga oshirilgan. Terminlarning shakllanishi, leksik-semantik xususiyatlari*